



## **DIZARTRIYA BILAN KECHUVCHI UMUMIY VA NOZIK MOTOR DISFUNKSIYALARI, KOORDINATSION BUZILISHLAR VA ARTIKULYATSION JARAYONLARNING O‘ZARO ALOQASI**

**Mualliflar:** Turdaliyeva Shahlo Husnitdinovna<sup>1</sup>, Abdumalikova Nilufar Jahongirovna<sup>2</sup>

**Affiliyatsiya:** O‘zMPU “Lodopediya” kafedrası v/b dotsent, PhD <sup>1</sup>, O‘zMPU 4-kurs talabasi<sup>2</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.17378501>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada dizartriya umumiy va nozik motor disfunktsiyalar hamda ataksiyaning artikulyatsiya jarayonlariga ta’sirlarining tahlili, motor buzilishlar va nutq mexanizmlari o’rtasidagi aloqalari ochib berilgan.

**Kalit so’zlar:** Dizartriya, ataksiya, umumiy va nozik disfunktsiya, koordinatsion buzilish, diadoxokinez, serebelyar struktura.

Dizartriya markaziy asab tizimi shikastlanishi natijasida yuzaga keladigan murakkab nutq buzilishlaridan biridir. Ushbu nuqsonning klinik ko’rinishlari faqat artikulyatsion apparat faoliyati bilan chegaralanmay, balki umumiy va nozik motorika hamda koordinatsion tizimning chuqur buzilishlari bilan ham chambarchas bog’liqdir. Ayniqsa, dizartriya bilan kechuvchi ataksiya, mushak tonusining o’zgarishi va motor diskoordinatsiya artikulyatsion jarayonlarning shakllanishida sezilarli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. So’nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, umumiy va nozik motor disfunktsiyalar bolaning artikulyatsion imkoniyatlari bilan bevosita korrelyatsiyada bo’lib, qo’l-harakatlaridagi koordinatsion buzilishlar nutq jarayonida ham o’z aksini topadi. Shu bois, dizartriya faqat nutqiy nuqson sifatida emas, balki kengroq nevromotor buzilishlar majmuasi sifatida ko’rib chiqish zarur.

Dizartriya nafaqat nutq apparati mushaklarining faoliyatidagi buzilishlar bilan, balki butun motor tizimining turli darajadagi disfunktsiyalari bilan ham kechadi. Umumiy motor disfunktsiyalar – yurishdagi beqarorlik, tana muvozanatini saqlashdagi qiyinchiliklar, mushak tonusining patologik o’zgarishlari bilan namoyon bo’ladi. Nozik motor disfunktsiyalar esa barmoqlar harakatlarining aniqligi va koordinatsiyasining pasayishi, kichik mushak guruhlarida ishidagi cheklanishlar orqali kuzatiladi. Shu turdagi buzilishlar bolaning qo’l bilan bajariladigan kundalik faoliyatini murakkablashtiradi va nutq apparati mushaklari hamda artikulyatsion harakatlarning yetarli rivojlanishiga to’sqinlik qiladi.

Ataksiya – markaziy asab tizimidagi, ayniqsa serebelyar strukturalardagi shikastlanishlar natijasida yuzaga keladigan muvofiqlashtirish buzilishidir. Bu holat nutq jarayonida tovushlar ketma-ketligini saqlash, artikulyatsion aniqlik va nutq sur’atini boshqarishda muammolarni yuzaga keltiradi. Ataksik dizartriya nutq odatda notekis, ritmik uzilishlar bilan kechadi, ayrim fonemalar cho’zilib talaffuz

qilinadi, unli va undosh tovushlarning akustik xususiyatlari buziladi. Natijada nutqning tushunarliqligi keskin kamayadi.

Motor tizimdagi disfunktsiyalar va artikulyatsion apparat harakatlari o'rtasida yaqin o'zaro bog'liqlik mavjud. Umumiy motorikadagi buzilishlar bolaning tanani boshqarish, nafasni muvofiqlashtirish va nutqiy nafasni shakllantirish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nozik motorika esa artikulyatsiya aniqligining bevosita ko'rsatkichi hisoblanadi: barmoqlar harakatidagi qiyinchiliklar ko'pincha til, lab va yumshoq tanglay mushaklaridagi koordinatsiya buzilishlari bilan parallel kechadi. Shu bois dizartriya qo'l harakatlari rivojlanishini qo'llab-quvvatlash artikulyatsion rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umumiy va nozik motor disfunktsiyalarni aniqlashda maxsus testlar qo'llaniladi: yurish va muvozanatni tekshirish, qo'l-barmoq koordinatsiyasini baholash, diadoxokinetik mashqlar (masalan, tez-tez va ketma-ket "pa-ta-ka" bo'g'inlarini aytish). Ushbu testlar artikulyatsiya jarayonlarining tezligi, aniqligi va muvofiqlashtirilganligini aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, akustik tahlil usullari tovushlarning fonetik sifatini, nutq ritmi va intonatsion xususiyatlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Dizartriya nutqiy nuqson sifatida nafaqat artikulyatsion apparat mushaklari faoliyatidagi yetishmovchiliklar bilan, balki umumiy va nozik motor tizimining keng qamrovli disfunktsiyalari bilan kechadi. Umumiy motorikadagi muvozanat, yurish va mushak tonusi buzilishlari nutqiy nafas va fonatsiya jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nozik motorikaning rivojlanmaganligi esa artikulyatsiya aniqligi, tezligi va tovushlar ketma-ketligining to'g'ri shakllanishini cheklaydi.

Ataksiyaning mavjudligi artikulyatsion harakatlarning muvofiqlashtirilishini yanada qiyinlashtiradi, nutqda ritmik uzilishlar, fonemalarning cho'zilishi va akustik parametrlardagi o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bu esa nutqning umumiy tushunarliqligini sezilarli darajada kamaytiradi.

Shunday qilib, motor buzilishlar va artikulyatsion jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni chuqur o'rganish dizartriya diagnostikasi va korreksion ishlar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Kompleks yondashuv – umumiy va nozik motorikani rivojlantirish mashqlari bilan logopedik terapiyani uyg'unlashtirish – artikulyatsion imkoniyatlarni kengaytirish va nutq sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ackermann, H., & Hertrich, I. (1994). Speech rate and rhythm in cerebellar dysarthria: An acoustic analysis of syllabic timing. *Folia Phoniatica et Logopaedica*, 46(2), 70–78.
2. Atkinson, J. R., Anker, S., & Nettelbeck, T. (1987). Relationship between articulation disorders and motor coordination in children. *Developmental Medicine & Child Neurology*, 29(3), 337–344.
3. Ackermann, H., Vogel, M., Petersen, D., & Poremba, M. (1992). Speech deficits in ischaemic cerebellar lesions. *Journal of Neurology*, 239(4), 223–227.
4. Brendel, B., Ackermann, H., Wismüller, A., Erb, M., & Ziegler, W. (2015). Speech changes after coordinative training in patients with cerebellar ataxia: A pilot study. *Journal of Neurology*, 262(9), 1991–2000.
5. Власова, Т. А. (1981). Нарушения речи при детских церебральных параличах. Москва: Медицина.

6. Лурия, А. Р. (1973). Нейропсихология. Москва: МГУ.

7. Turdaliyeva Sh.H. Maktabgacha ta'lim yoshdagi nutqida og'ir nuqsonlari bo'lgan bolalarda o'qishga oid dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish. Ped.fan.bo'yicha falsafa dok. (PhD) diss. Avtoreferati. -T.: 2025.-20 b.

